


**2020-yil 1-yanvar holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida subyektlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida Farg'ona viloyatida 7 024 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 686 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6,3 mingta (21,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 35,9 mingtani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yilning 1-yanvar holatiga 35 851 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 4,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,5 % sanoatda, 8,1 % qurilishda, 25,8 % savdoda, 3,9 % tashish va saqlash, 4,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 2,9 % axborot va aloqa, 2,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 25,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.01.2020 yil	
	01.01.2019 yil	01.01.2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	29 529	35 851	21,4	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 555	1 750	12,5	4,9
Sanoat	6 310	7 718	22,3	21,5
Qurilish	2 469	2 897	17,3	8,1
Savdo	6 326	9 243	46,1	25,8
Tashish va saqlash	1 189	1 413	18,8	3,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 363	1 756	28,8	4,9
Axborot va aloqa	996	1 033	3,7	2,9
Sog'lirqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	709	813	14,7	2,3
Boshqa turlari	8 612	9 228	7,2	25,7

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (9 243 ta) savdo, (7 718 ta) sanoat, (2 897 ta) qurilish, (1 750 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1 756 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (1 413 ta) tashish va saqlash, (1 033 ta) axborot va aloqa, (813 ta) sog'lirqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda (9 228 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 35 379 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6 251 ta (21,5 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 25,8 % savdo, 21,7 % sanoat, 8,1 % qurulish, 4,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 2,9 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 25,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Farg'ona shahri (6 348 ta), Qo'qon shahri (4 733 ta), Marg'ilon shahri (3 569 ta), Uchko'prik tumani (1 821 ta) va Dang'ara tumani (1 678 ta), Oltiariq tumani (1 613 ta), O'zbekiston tumani (1 588 ta) hamda Quva (1 539 ta) tumanlari xissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-dekabr oylarida 7 024 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 3 480 taga ko'pdir.

Yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan

korxonalar va tashkilotlarning


yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2019 yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Farg'ona (1 113 ta), Qo'qon (837 ta), Quvasoy (237 ta), Marg'ilon (663 ta) shaharlarida, Oltiariq (402 ta), Quva (434 ta) va O'zbekiston (332 ta), Buvayda (323 ta), Dang'ara (345 ta), Qo'shtepa (216 ta), Bog'dod (254 ta), Beshariq (224 ta), Uchko'prik (341 ta), Rishton (283 ta), Toshloq (281 ta), Farg'ona (341 ta), Furqat (164 ta), So'x (98 ta) hamda Yozyovon (136 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa sanoatda (1 663 ta), savdoda (3 007 ta), qurilishda (495 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (282 ta), tashish va saqlashda (260 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (430 ta), axborot va aloqada (94 ta), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (107 ta), boshqa turlarda (686 ta) tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tijorat korxonalarini

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-yanvar holatiga 29 475 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 9 940 ta, oilaviy korxonalar – 3 687 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 15 195 ta va boshqalar 653 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat
ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiyligi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil 1-yanvar holatiga ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 418 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 135 taga yoki 47,7 % ga o'sgan. Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi xissalariga to'g'ri keladi.


2020-yil 1-yanvar holatiga xorijiy kapital ishtirokida 415 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, Farg'ona 139 ta (33,5 %), Qo'qon 56 ta (13,5 %), Marg'ilon 23 ta (5,5 %), Quvasoy 22 ta (5,3 %) shaharlarida, Farg'ona tumanida 24 ta (5,8 %), So'x tumani 3 ta (0,7 %), Furqat tumani 5 ta (1,2 %), Qo'shtepa tumani 8 ta (1,9 %), Bag'dod

tumani 8 ta (1,9 %), Buvayda tumani 9 ta (2,2 %) va Yozyovon tumani 5 ta (1,2 %) xissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida o'sish sur'ati, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 282 tasi qo'shma, 133 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Farg'ona viloyati	415	100,0
Farg'ona shahar	139	33,5
Qo'qon shahar	56	13,5
Quvasoy shahar	22	5,3
Marg'ilon shahar	23	5,5
<i>Tumanlar:</i>		
Oltiariq tumani	19	4,6
Qo'shtega tumani	8	1,9
Bog'dod tumani	8	1,9
Buvayda tumani	9	2,2
Beshariq tumani	6	1,5
Quva tumani	17	4,1
Uchko'prik tumani	11	2,7
Rishton tumani	10	2,4
So'x tumani	3	0,7
Toshloq tumani	13	3,1
O'zbekiston tumani	20	4,8
Farg'ona tumani	24	5,8
Dang'ara tumani	17	4,1
Furqat tumani	5	1,2
Yozyovon tumani	5	1,2

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 138 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 58 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Farg'ona 39 ta (28,3 %), Qo'qon 15 ta (10,9 %), Marg'ilon 4 ta (2,9 %), Quvasoy 7 ta (5,1) shaharlarda, Farg'ona tumanida 8 ta (5,8 %), O'zbekiston tumani 8 ta (5,8), Quva tumani 9 ta (6,5) xissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi - 24 ta, Rossiya Federatsiyasi – 20 ta, J.Koreya Respublikasi - 16 ta, Qirg'iz Respublikasi - 1 ta, Turkiya Respublikasi - 8 ta, Germaniya-1 ta, Latviya – 1 ta, Buyuk Britaniya – 1 ta, Ozarbayjon - 2, Armaniston – 3 ta, Amerika Qo'shma Shtatlari – 1 ta, Shvetsiya qirolligi - 1 tadan va yana bir qator boshqa davlatlar bilan hamkorlikda yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek bir nechta davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyat yuritishga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 72 ta, savdoda 24 ta, qishloq va o'rmon xo'jaligida 16 ta, qurilishda 3 ta va boshqa korxonalarda 23 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



Kichik korxona va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-yanvar holatiga viloyatda ro'yxatdan o'tgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 29,6 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-yanvar holatiga qaraganda 25,7 % ga oshgan.

Ro'yxatdan o'tgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 5 383 tasi (18,2 %) Farg'ona, 4 169 tasi (14,1 %) Qo'qon, 3 220 tasi (10,9 %) Marg'ilon shaharlariga, 1 607 tasi (5,4 %) Uchko'prik va 1 443 tasi (4,9 %) Dang'ara tumanlari xissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamiga nisbatan ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Farg'ona shahar
18,3 %



Beshariq tumani
2,7 %



Qo'qon shahar
14,1 %



Rishton tumani
2,7 %



Marg'ilon shahar
11,0 %



Furqat tumani
2,2 %



Uchko'prik tumani
5,3 %



So'x tumani
2,2 %




Dang'ara tumani
4,9 %



Yozyovon tumani
1,9 %


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ro'yxatdan o'tgan jami 29 599 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 9 208 tasi (31,1 %) - savdoda, 7 649 tasi (25,9 %) - sanoatda, 2 879 tasi (9,7 %) - qurilishda, 1 692 tasi (5,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1 748 tasi (5,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1 398 tasi (4,7 %) - tashish va saqlashda, 1031 tasi (3,5 %) - axborot va aloqa sohasida, 621 tasi (2,1 %) - sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 3 353 tasi (11,3 %) - boshqa faoliyat turlari xissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-dekabr oylarida 6 712 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2018-yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2 932 taga ko'paygan. Asosiy yangi kichik korxona va mikrofirmalar Farg'ona (1 061 ta), Qo'qon (802 ta), Marg'ilon (650 ta) shaharlarida, Oltiariq (387 ta) va Buvayda (318 ta), So'x (92 ta), Furqat (154 ta) hamda Yozyovon (125 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda savdoda (3 006 ta), sanoatda (1 660 ta), boshqa turdag'i xizmatlar (397 ta), qurilishda (493 ta), tashish va saqlashda (260 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (267 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (430 ta), axborot va aloqada (94 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (105 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar


2020-yil 1-yanvar holatiga viloyatda ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 3 721 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga qaraganda 964 taga ko'payganligini ko'rishimiz mumkun.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 3 721 tani tashkil etib, ulardan 3 687 tasi yoki 99,1 % faoliyat yuritadi.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 45,6 % yoki 1 683 tasi sanoat, 14,2 % yoki 523 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,2 % yoki 708 tasi savdo, 7,5 % yoki 278 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,0 % yoki 74 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 33 tasi axborot va aloqa, 1,2 % yoki 43 tasi qurilish, 0,9 % yoki 34 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 8,4 % yoki 311 tasi boshqa faoliyat turlari xissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, asosiy qismi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, savdo, boshqa turlar, tashish va saqlash xissasiga to'g'ri keladi.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

Farg'ona viloyati	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Farg'ona viloyati	1 041	100,0
Farg'ona shahar	113	10,9
Qo'qon shahar	52	5,0
Quvasoy shahar	23	2,2
Marg'ilon shahar	78	7,5
Oltiariq tumani	72	6,9
Qo'shtepa tumani	32	3,1
Bog'dod tumani	62	6,0
Buvayda tumani	65	6,2
Beshariq tumani	60	5,8
Quva tumani	52	5,0
Uchko'prik tumani	60	5,8
Rishton tumani	131	12,6
So'x tumani	13	1,2
Toshloq tumani	52	5,0
O'zbekiston tumani	52	5,0
Farg'ona tumani	74	7,1
Dang'ara tumani	14	1,3
Furqat tumani	34	3,3
Yozyovon tumani	2	0,2

2019-yil yanvar-dekabr oylarida 1 041 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 381 taga ko'proqdir. Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni Farg'ona shahar (113 ta), Marg'ilon shahar (78 ta) va Rishton (131 ta), Farg'ona (74 ta), Oltiariq (72 ta), Buvayda (65 ta) hamda Beshariq (60 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 39,5 % yoki 411 tasi sanoat, 33,8 % yoki 352 tasi savdo, 14,9 % yoki 155 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 3,9 % yoki 41 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,6 % yoki 6 tasi qurilish, 1,2 % yoki 12 tasi sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % yoki 14 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 3 tasi axborot va aloqa hamda 4,5 % yoki 47 tasi boshqa faoliyat turlari xissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish
bo'limi**

Tel.:71-230-87-37

